

**NATAN MALLAYEVNING ALISHER NAVOIY “QIT’ALAR,  
RUBOIYLAR, TUYUQLAR” ASARI XUSUSIDA**

Temirova Anora Cho‘yan qizi<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Chirchi davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi,  
Toshkent iqtisodiyot va peagogika instituti o‘qituvchisi

**MAQOLA  
MALUMOTI**

**ANNOTATSIYA:**

**MAQOLA TARIXI:**

Received: 22.03.2025

Revised: 23.03.2025

Accepted: 24.03.2025

**KALIT SO’ZLAR:**

epik, liroepik,  
prozaik, qit’ा, ruboiy,  
tuyuq.

Natan Mallayevning “Alisher Navoiy Qit’alar, Ruboiyalar, Tuyuqlar” asari O‘zbek adabiyotshunosligida muhim o‘rin tutadi. Ushbu maqola buyuk mutafakkir Aisher Navoiyning qisqa she’riy shakllariga, ya’ni qit’alar, ruboiylarga va tuyuqlarga doir chuqur tahvilni o‘z ichiga oladi. Olim ushbu asarida Navoiy ijodining murakkab falsafiy, axloqiy va estetik jihatlarini yoritib, uning she’riy g‘oyalari va adabiy uslublarini zamonasi va kelajagi uchun qadrlı ekanligini isbotlashga harakat qiladi.

Maqolada Navoiyning bu she’riy shakllardagi izlanishlari, uning insoniyatga bo‘lgan qarashlari, axloqiy jihatlari va zamondoshlariga qoldirgan merosi kiritilgan. Mallayev, asarda Navoiyning falsafiy fikrlari va ulug‘ shoir sifatidagi adabiy merosini, o‘zining so‘z san’ati orqali qanday ifodalaganini tushuntiradi. Qit’alar va ruboiyalar Navoiy ijodida eng mashhur shakllardan bo‘lib, ular qisqa, lekin mazmunli so‘zlar bilan keng hikmatlarni o‘zida mujassam etadi.

**KIRISH.** Natan Mallayev ijodiy-ilmiy faoliyatining o‘ziga xosligi shundaki, olim navoiyshunos sifatida buyuk mutafakkir ijodiy labaratoriyasiga kirib borar ekan Hazrat Mir

Alisher Navoiyning lirik, epik, liroepik, prozaik asarlarini har birini diqqat markazida tutadi, natijada Navoiy ijodining eng kichik baytidan tortib, ulkan asarlarigacha bo‘lgan jihatlarini alohida ko‘zdan kechiradi. Natan Mallayevning Alisher Navoiy “Qit’alar, ruboilar, tuyuqlar” kitobini sinchiklab o‘rganar ekanmiz kitobga kiritilgan qit’a ruboilyarni mazmun jihatidan quyidagicha tasniflash mumkin:

- Sevgi, vafo, muhabbat to‘g‘risidagi qit’alar;
- so‘zning qadri, so‘zning inson hayotidagi o‘rni v.h.k;
- Vatan ta’rifi vatanga bo‘lgan muhabbat, sadoqat.

So‘z san’atining ulkan namoyondasi Alisher Navoiy badiiy adabiyotning xilma-xil tur va janrlarida o‘lmas asarlar yaratdi. U o‘zbek klassik adabiyoti xazinasini ajoyib epik, liroepik, lirik va prozaik asarlari bilan boyitdi.

Boshqa janrlarda yaratgan asarlari kabi Alisher Navoiy yashagan davrining eng muhim, muhim masalalarini qit’a va ruboilyari uchun ham mavzu qilib oldi hamda ilg‘or fikr-qarashlarini yuksak san’atkorlik mahorati bilan mujassamlashtirdi.

Chu g‘araz so‘zdin erur ma’ni anga,  
Noqil o‘lsa xoh xotin, xoh er.  
So‘zchi holin boqma, boq so‘z holini,  
Ko‘rma kim der oni, ko‘rgil kim ne der [1].

Bu qit’adagi fikr Navoiyning butun ijodi, jumladan qit’a va ruboilyari uchun ham yetakchi tezis bo‘lgan edi. Shoир o‘z qit’a va ruboilyarida inson va uning turli xil faoliyati, xulqi, fe’l-atvori, maqsad va intilishi, tilak va orzusi; do’stlik va sadoqat, sevgi va vafo, visol shavqi va hijron azobi, vatan va el-yurt ishqisi, farovonlik va obodonchilik, istibdodga nisbatan tanqidiy munosabat va adolatga intilish, hayot va kishi umrini qadrlash, poklik va halollik, ma’rifatparvar g‘oyalarining mavjudligi bilan alohida gavdalanadi.

Natan Mallayevning fikrlariga ko‘ra, shoир har bir kishidan jamiyatga, ommaga foyda keltirishni talab qiladi. Buning uchun biror kasb-hunarni, mashg‘ulotni egallab, uni kamolga yetkazish lozimligini ta’kidlaydi, yo‘qsa kishi dunyoga kelib “notamom” chala o‘tib ketadi.

Kamol et kasbkim, olam uyidin  
Senga farz o‘lmag‘ay g‘amnok chiqmoq.  
Jahondii potamom o‘tmak, bnaynih  
Erur hammomdin nopol chiqmoq,

Kishi yaxshi fe’l-atvorga ega bo‘lishi, yaxshi xulqli kishilardan ibrat-o‘rnak olishi va shu yo‘sinda xalqqa matlub va marg‘ub bo‘lishi kerak.

Xo‘b el bila suhbat tutubon xo‘b o‘lg‘il,

Yaxshini talab qilg‘ilu matlub o‘lg‘ila  
 Shirin so‘z ila xalqqa marg‘ub o‘lg‘il,  
 Yumshoq de hadisnigniyu mahbub o‘lg‘il.

Rostlik, to‘g‘rilik, samimiyat kishining eng a’lo sifatlaridir. Bu kamolot bosqichining muhim pilla-poyalaridan bo‘lib, kishini, maqsadga tomon yaqinlash tiradi, maqsad yo‘lidagi to‘siqlarini yengishga, mushkulotlarni oson etishga xizmat qiladi. Bu haqda Navoiy bunday deydi:

Olam elig‘a hayot erur tuzlukdin,  
 Yetmak g‘araziga bot erur tuzlukdin;  
 Norostg‘a ko‘p uyot erur tuzlukdin  
 Lek er kishiga najot erur tuzluklin.

Bu sifatlar kishi uchun bitmas-tuganmas boylikdir. Himmat, saxovat, karam, muruvvat, shijoat va boshqa fazilatlar bu boylik xazinasini to‘ldiruvchi beba ho durlardir. Shoir, insonga uning nasabi, mansabi yoki martabasiga qarab emas, balki konkret faoliyati, ishi-amali, niyati va barcha xatti-harakatlariga qarab baho beradi, o‘zgalarni ham shunga o‘rgatadi.

Har kimni bilay desang maqolin angla,  
 Aslin desang anglayin fiolin angla,  
 Kirdorig‘a boqib, asli holin angla,  
 Asliga dalil aning xisolin angla.

Olim Natan Mallayevning qarashlariga ko‘ra, din-e’tiqod, nasl-nasab yoki jins kishining ma’naviy qiymatini ifodalovchi asoslar bo‘la olmaydi, hamda ushbu fukrlarini isbotlash uchun Alisher Navoiyning quyidagi misralarini keltirib o‘tadi.

Yuz tuman nopol erdin yaxshiroq,

Pok xotunlar ayog‘ining izi...

Xotin-qizlar feodal istibdod iskanjalari ostida qulga aylantirilib, haq-huquqdan mahrum qilingan O‘rta asrlar sharoitida aytilgan bu so‘zlar zulmatni yorib o‘tgan ziyo, ma’rifatning so‘nmas ziyosi edi.

Hazrat Mir Alisher Navoiy yurtining obod va elining shod bo‘lishini jon-u dili bilan istaydi, el-yurti bilan doimo birga bo‘lishni, erkin nafas olishni xohlaydi:

G‘urbatda g‘arib shodmon bo‘lmas emish,  
 El anga shafiqu mehribon bo‘lmas emish,

Oltin qafas ichra gar qizil gul butsa,  
 Bulbulg‘a tikandek oshyon bo‘lmas emish.

Olimning Alisher Navoiy “Qit’alar, ruboiylar, tuyuqlar” asarida Navoiy donishmand murabbiy sifatida kitobxonlarga nasihat qilar ekan, ularni eng yaxshi xislatlarni egallab olishga yo’llaydi, yomonlar va ularning xatti-harakati, kirdikori, fe'l-atvoriga qarshi g‘azab va nafrat o’qlarini yog‘diradi [2].

To‘g‘ri, qisqa va mazmunli so‘zlash, tilga ortiqcha erk bermaslik, har bir kishiga uning holi-ahvoli va kayfiyatiga qarab munosabatda bo‘lish, ota-onani izzat, kattalarni hurmat qilish, irodali va matonatli bo‘lish, zolim va ablah kishilardan hazar etish, dushmanidan har qachon ham ehtiyot bo‘lish, soxta “do‘sstar”ga aldanmaslik, oltin-kumush to‘plash maraziga giriftor bo‘lmaslik va hokazo-hokazo masalalar Alisher Navoiyning diqqat-e’tiboridan chetda qolmaydi, Xushomadgo‘y, laganbardor, xomtama, ikkiyuzlamachi kishilarga qarshi shoirning g‘azab va nafrati jo‘sh uradi:

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alisher Navoiy “Qit’alar, ruboiylar, tuyuqlar”. to‘plovchi va nashrga tayyorlovchi Natan Mallayev. – Toshkent-1960. 5 b.
2. Alisher Navoiy “Qit’alar, ruboiylar, tuyuqlar”. to‘plovchi va nashrga tayyorlovchi Natan Mallayev. – Toshkent-1960. 8 b